



UDK:316.3(575.1+410.1)

Manzura BEKMURODOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mal: bekmurodovamanzura129@gmail.com

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD M.Qosimovaning taqrizi asosida

ANALYSIS OF LINGUACULTURAL FEATURES OF COMMUNICATION IN UZBEK AND ENGLISH FAMILIES

Annotation

In the article, the specific features of family communication are divided into classifications and the linguacultural features of the two nations are analyzed through the examples of literary works in the languages being compared.

Key words: Daily communication, communicative purpose, family communication.

АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ СЕМЬЯХ

Аннотация

В статье особенности семейного общения разделены на классификации и раскрываются лингвокультурные особенности двух народов на примерах литературные произведения на сравниваемых языках.

Ключевые слова: Повседневное общение, коммуникативная цель, семейное общение.

O‘ZBEK VA INGLIZ OILALARIDAGI MULOQOTNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada oila muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari tasniflarga bo‘linib qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asarlardagi misollar orqali ikki millatning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kundalik muloqot, kommunikativ maqsad, oila muloqoti.

Kirish. “Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo‘lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o‘z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog‘ omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin”[1]. Oiladagi muloqot – bu oila a‘zolari o‘rtasidagi axborot almashinuvi, o‘zaro ta‘sir va tushunish jarayoni. U oila a‘zolarining bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga, o‘zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishga, muammolarni hal qilishga, yaqinlikni saqlashga va oilaviy baxtni ta‘minlashga yordam beradi. Insonlar oilada bir-birlari bilan muloqotda bo‘lganida turli lisoniy vositalar – so‘z, iboralar, gaplar va ularning variantlaridan foydalanadilar. Dialog olib boryotgan kishilarning muloqotidan va foydalanayotgan so‘zlaridan ularning millati va madaniyati haqida osongina bilib olish mumkin. K.Marks va F.Engelslar «Nemis mafkurasi»da muloqotni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri deb atashadi[2]. Haqiqatdan ham, kundalik hayotimizni diaologlarsiz va muloqotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson ongi muloqot jarayoni natijasida o‘sib, dunyoqarashi kengayib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Oila a‘zolari o‘rtasida sodir bo‘ladigan murakkab va serqirrali o‘zaro munosabatlar ko‘plab olimlar, shu jumladan, o‘zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, G.Shoumarov, E.G‘oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog‘inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan o‘rganilgan. Ularda ko‘proq o‘zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an‘analarni nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o‘rganganlardan biri rus olimi L.Y. Gozman (1987) hisoblanadi”[3] M.Maxsudova o‘zining “Muloqot psixologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida ham oila muloqoti to‘g‘risida fikrlarni keltirib o‘tgan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Muloqot-insonning kim ekanligi ,xarakteri va shuningdek uning millati va xalqini anglatuvchi vositadir. Ingliz va o‘zbek oilalari muloqotining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda muloqotdagi til va madaniyat elementlarini tahlil qilish. Har ikki madaniyatdagi oilaviy munosabatlar va an‘analarni o‘rganish.

Tahlil va natijalar. “Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi

muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umring boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya‘ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi”[5]. Oila davrasida insonlar kun davomida turli muloqotlardan foydalanadilar va bu kundalik muloqotlar orqali ular bir birlariga o‘z fikrlari, xohish istaklarini bildiradilar. Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent – M. Maxsudova o‘zining nazariyalari asosida muloqotning yoshga xos xususiyatlarini bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rgangan. Maxsudovaning ilmiy izlanishlari va nazariyalari asoslangan holda oiladagi kundalik muloqot jarayonlarini chog‘ishtirilayotgan ikki tilda quyudagi guruhlariga bo‘lib oson o‘rganish mumkin. Oiladagi kundalik muloqot: opa-singillar va aka-ukalar muloqoti, er-xotin muloqoti, qaynona kelin muloqoti, ona bola muloqoti, ovsinlar muloqoti, quda-andalar muloqotiga ajratib ularni o‘zbek va ingliz tilidagi badiiy adabiyotlar hamda kinofilmlardan olingan parchalar orqali o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish, va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish mumkin.

Bizga ma‘lumki, o‘zbek oilalaridagi muloqot jarayonlarida doimo hurmat va o‘zbeklarga xos andisha ko‘rinib turadi. Ayniqsa opa-singil va aka-ukalar o‘rtasidagi muloqot ya‘ni siblings‘ communicationda xushmuomalalik sezilib turadi. Shuningdek, “ko‘pgina tadqiqotchilar (Richardson R., 1994; Driskoll R., Iksteyn D., 2003; Brazington R., 2003 va boshqalar) shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do‘stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o‘rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta‘sir etishini o‘rganishgan”[6]. Aka-uka va opa singillar muloqoti jarayonida ko‘pgina tagma‘nolarni uchratishimiz mumkin. Masalan doimo ular bir birlari bilan hazil mutoyiba yoki kinoyal so‘zlarni ishlatishlari tabiiy holdir. Badiiy asarlardan olingan quyidagi parchalar orqali fikrimizni yanada ochishga harakat qilamiz.

— Hoshim! — deb chaqiradi ba‘zan oyim.

— Labbay, oyijon?

— Tomdan oltin tashlab bergin.

— Xo‘p bo‘ladi, oyijon, — deymaun sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

— Oysha! - deb qichqiraman.

— Labbay, akajon?

— Tomdan o‘tin tashlab bergin.

— Xo‘p bo‘ladi, akajon, — deydi Oysha”. (“Sariq devni minib”. X.To‘xtaboyev)

Ushbu parchada aka singil muloqoti keltirilgan bo'lib akaning singlisiga buyruq ohangi qichqiraman so'zidan ko'rinib turibdi. Singilning esa akaga nisbatan cheksiz hurmati har bir javobining so'ngida akajon so'zini takrorlashi orqali yaqqol seziladi. O'zbek xalqi mehribon va samimiy xalq bo'lgani bois har bir oilada bolalarni kichik yoshligidan boshlab aka va opalarni sizlashga va doimo ularga hurmat ko'rsatishga o'rgatib boriladi. Ammo inglizlarda esa bunday holat kuzatilmaydi. Aka singillar yoki aka ukalar muloqotida sizlash va hurmat bilan gapirishni kuzatish qiyin. Shuningdek, ular o'z fikrlarini hech qanday ikkilanishlarsiz bayon etadi.

“Jane: "I believe that love should be gentle and kind. It grows slowly but surely."

Elizabeth: "And I believe that love should be passionate and full of fire! It must challenge us or it is not worth having" (Jane Austen. "Pride and Prejudice").

“Y.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi”.

Y.Dubrovning (2004) ta'kidlashicha, “Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi”[7].

Oila muloqotini o'rganishda nafaqat opa-singil va aka-ukalar muloqoti shuningdek, er-xotin o'rtasidagi kundalik muloqotlardan xalqning lingvomanadaniy xususiyatlarini ko'rish mumkin. O'zbek er-xotin muloqotidan uzoqlashmagan holda ingliz xalqida ham er-xotin muloqotida yumshoqlik va muloyimliklarni ko'rishimiz mumkin.

“My dear Mr. Bennet, replied his wife, how can you be so tire some! You must know that I am thinking of his marrying one of them.

Is that his design in settling here?

Design! Nonsense, how can you talk so!

But it is very likely that he may fall in love with one of them, and therefore you must visit him as soon as he comes.

I see no occasion for that. You and the girls may go, or you may send them by themselves, which perhaps will be still better, for as you are as handsome as any of them, Mr. Bingley may like you the best of the party.

My dear, you flatter me. I certainly have had my share of beauty, but I do not pretend to be anything extraordinary now. When a woman has five grown-up daughters, she ought to give over thinking of her own beauty”. (Jane Austen. “Pride and Prejudice”. 2 page)

Ushbu parchadagi er-xotin muloqotida shuni ko'rishimiz mumkinki, xotini qanchalik qiziqqon va shoshqaloq bo'lishiga qaramay, Mr Bennet deyarli har bir nutqida my dear so'zi orqali fikrini xotiniga chiroyli shaklda ifoda etgan. Shuni ham alohida takidlash joizki, oilada shunday kommunikatsiyalar bo'ladiki, ularda millatning o'ziga xos bir ko'zgusini yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, quyidagi asardan olingan parcha orqali fikrimizni isbotlash mumkin:

“Choyni ichib bo'lg'andan keyin qutidor fotiha o'qub o'rnidan turdi:

— Men senga aytib qo'yay, Kumush, — dedi turar ekan qutidor Oftob oying'a, — bu kunga bir mehmon aytgan edim. Cho'ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag'an ko'rpalarini ber, tanchaga o'shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?

— Bor.

— Bor bo'lsa yaxshi. Bir ozdan so'ng et olib kirguzarman, varaqi pishirib qo'yingiz.

Oftob oyim varaqi pishirishdan u kungi mehmon-ning unchamuncha kishi bo'lmag'anlig'ini bildi”. (A.Qodiriy. “O'tgan kunlar”).

Ushbu parcha er-xotin muloqoti orqali o'zbek millatiga xos bo'lgan mehmondo'stlik va mehribonlik aks etgan. O'zbek xalqining mehmondo'st odamlariga eng sara, eng yaxshi narsalarini mehmonga ilinadi.

O'zbek xalqida qaynona kelin munosabatlari doimo dolzarb masalalardan biri bo'lgan. Ko'p xolatlarda ularning muloqotlarida qo'pol va yoqimsiz so'zlarni uchratish mumkin. O'zbek millatiga xos bo'lgan qaynona kelin muloqotini va shuningdek ovsinlar hamda ona bola muloqotlaridagi o'ziga xos ma'nolarni taniqli adibimiz Said Axmadning birgina „Kelinlar qo'zg'oloni” dramasi orqali aniqlash mumkin va buni boshqa millatlarda foydalaniladigan muloqot bilan qiyoslab lingvomanadaniy xususiyatlarini ochib berish mumkin.

“S o t t i. Layli-Majnun. (Nigoraga). Engashib salom qiling.

N i g o r a. Salom!

F a r m o n (g'azab bilan). Qaysi go'rda tarbiya ko'rgansiz? Ota-onangiz axloq, odob degan narsalarni o'rgatmaganmi? (Yuzini teskari o'giradi.)”. (Said Axmad. „Kelinlar qo'zg'oloni).

Ushbu parchada qaynona kelin muloqotini va undagi qo'pollikni ko'rish mumkin. Ularning nutqlaridan kelinning shaddodligini qaynona ham bo'sh kelmaydigan ,ammo, yaxshiga yaxshi yomonga yomon ekanligini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsada farzandi tenggi kelinini sizlab murojaat qilishidan yomon qaynona emasligini anglash mumkin. Aksincha, kelini yosh va gapga kirmaydigan erkatoq qizligini ham ularning muloqotlaridan anglab olish qiyin emas.

“F a r m o n (ichkaridan). Nega ko'nmas ekansan? Ko'nasan. Men seni o'g'ri bo'l deya yotganim yo'q.

Shuncha kelinlarim senga o'xshagan odam. Hammasi aytganimni qiladi.

N i g o r a. Men ko'nmayman. Siz axir zamonamizdan ikki yuz yil orqada qolib ketgansiz-ku.

F a r m o n. E, menga artistlik qilma. (Sottiga.) Bu kelin osonlikcha bo'yin egadiganga o'xshamaydi. Qilt etgan tovushi, g'iring degan gapni menga yetib tursin. Tushundingmi?

S o t t i. Xo'p bo'ladi, oyijon. Ko'zim durbin, qulog'im mikrafon”. (S.Axmad. “Kelinlar qo'zg'oloni”) Bu parchada esa qaynonaning kelinlari bilan o'zaro muloqotini ko'rishimiz mumkin. Ularning nutqlarida qaynonaning qattiqo'l va talabchan ekanligini, Nigoraning esa bo'ysinmas kelinligini ko'rish mumkin. Katta kelin Sottining esa qaynonaning o'ng qo'li ekanligini “Xo'p bo'ladi, oyijon. Ko'zim durbin, qulog'im mikrafon” nutqi orqali anglashiladi.

Oila muloqoti haqida so'z borganda ona bola muloqotini ham ta'kidlash joizdir. Ona va o'g'il muloqotida ham chiroyli gaplarni uchratishimiz mumkin.

“Otabek mehmonxonaga yaqinlashishi bilan chaqaloq yig'isini eshitib ixtiyorsiz ichkari havlig'a tomon burildi va yo'lakda onasig'a yo'liqdi. Qorong'u bo'lsa ham O'zbek oyimning tusidagi shodliq belgulari ochiq ko'rinib turar edi:

— O'g'ul muborak bo'lsun, bolam!

— O'zi tetikmi?

— Tetik!

— Oldig'a kiraymi?

— Yo'q, — dedi O'zbek oyim, — chillalik uyga kechasi ko'chadan kelib kirish yaxshi emas”.(A.Qodiriy. „O'tgan kunlar”). Ushbu parchadagi ona va bolaning muloqotidan o'zbek millatiga xos bolajonlik ya'ni farzandli bo'lganligidan ikki suhbatdoshning ham benihoya shod ekanligini sezishimiz mumkin.

Nafaqat o'zbeklarda balki, ingliz millatidagi ona bola muloqotlaridan anglashilgan ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Masalan :

“-Kevin, Kevin, Kevin(pouse) . Kevin Merry Christmase sweyetheart

-Mum

-Oh Kevin I'm so sorry

-Mum,where's everybody else

-Oh baby,they couldn't come they wanted to so much”

(“Home alone”. Film)

Uyda yolg'iz filmidan olingan ona bola muloqotida ular bir birlarini judayam sog'inganligini va bo'lib o'tgan ishlardan afsusdaligini anglash mumkin. Shuningdek o'g'il nafaqat onasini balki, boshqa oila azolarini ham sog'inganligini “where's everybody else” nutqi orqali sezish mumkin.

O'zbek xalqi azaldan mehr-muruvvatli va andishali xalq hisoblanadi. Shuning uchun ham faqat o'zbek millatidagina bir hovlida uch to'rttagacha aka-ukalar birga yashab bir tom ostida istiqomat qilishi mumkin. Tabiiyki, aka ukalarning xotinlari ya'ni ovsinlar muloqoti ham o'rganishga arzidigan qiziq mavzu hisoblanadi. Ularning muloqotida hajviya ,g'iybat yoki kinoyalarni anglash mumkin. Masalan quyidagi parcha orqali fikrimizni isbotlaymiz.

“S o t t i. Hozir issiq suv chapishtirib beraman. Tahoratingizni yangilab olasiz, oyijon.

B o' s t o n (chiqib ketarkan). Patxalim o'lgur. Shu desangiz...

B a s h o r a t. Suykalmay joning chiqsin! (Hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga.) Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo'ling. Aslo sir ayta ko'rmang, darrov sotadi. Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga.

M u h a y o. Shpion bu o'lgur, shpion!

M e h r i. Bu shpion o'lgur hammamizni nervniy qilib qo'yg'an”. (S.Axmad. “Kelinlar qo'zg'oloni”). Navbatdagi ovsinlar muloqotidan ham bir biriga boshqasini yomonlashi ya'ni g'iybat aks

etgan bo'lib katta kelinlar yangi kelinni xavfdan ogohlantirib turgani ularning komik muloqotidan osongina anglashiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, O'zbek va ingliz oilalaridagi kundalik muloqot farqlari va o'xshash tomonlari bir qator madaniy, til va ijtimoiy omillarga bog'liq. Oila muhimligi har ikkala madaniyatda ham oila a'zolari orasidagi munosabatlar juda muhim hisoblanadi. Oila a'zolari bir-birlariga yordam berishadi va qo'llab-quvvatlashadi. Shuningdek, muloqotning iliqliqi haqida to'xtalib o'tilsa, o'zbek va ingliz oilalarida ijobiy muloqot uslubi mavjud bo'lib, bu ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini ifodalaydi. Ikkala madaniyatda ham an'anaviy qadriyatlar, masalan, hurmat, samimiyat va sadoqat muhim ahamiyatga ega. Ikki millat muloqot uslubida bir qator farqlarni ko'rish mumkin: o'zbek oilalarida ko'proq

an'anaviy va rasmiy muloqot uslublari mavjud bo'lishi mumkin, ayniqsa kattalar bilan suhbatda. Ingliz oilalarida esa ko'proq norasmiy va ochiq muloqot uslublari mavjud. O'zbek madaniyatida tashqi ko'rinish va kiyim-kechakga ko'proq e'tibor beriladi, bu esa muloqotda ham aks etishi mumkin. Ingliz oilalarida esa bu jihat biroz kamroq ahamiyatga ega. O'zbek oilalari odatda o'zaro suhbatlarda an'anaviy mavzularni (masalan, oziq-ovqat tayyorlash, mehnat qilish) muhokama qilishadi. Ingliz oilalarida esa kengroq mavzular (sport, texnologiya) haqida suhbatlashish odatiy hol hisoblanadi. O'zbek madaniyatida kattalarni hurmat qilish juda muhimdir. Ingliz madaniyatida esa egalik yoki tenglikka asoslangan munosabatlar ko'proq tarqalgan. Bu farqlar va o'xshash tomonlar har bir oilaning kundalik kommunikatsiya jarayonidan yaqqol seziladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -316 b.
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/ponyatie-obshcheniya-v-socialnoi-psihologii-socialnaya-psihologiya-tema/>
3. <https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/5476/4821/4722>
4. Maxsudova M.. Muloqot psixologiyasi. Toshken «Turon-iqbol»2006.-119 b.
5. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -7 b
6. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -128 b
7. Xorni K. Jenskaya psixologiya. – SP .1993.
8. Qodiriy A.. “Tanlangan asarlar” “O'tgan kunlar” “Sharq” nashriyoti,Toshkent-2014.-880 b.
9. Austen J.. “Pride and Prejudice” .Info books.org.-515 b.
10. Axmad S.. “Kelinlar qo'zg'oloni”
11. To'xtaboyev X. “Sariq devni minib” Toshkent «Yangi asr avlodi» 2010.-236 b.